

-Bugungi darsda sizga nima yangilik bo'ldi?

-Qaysi topshiriqni bajarishga qiynaladingiz?

## 56-mavzu: [x] tovushi. X x harfi yuzasidan amaliy topshiriqlar

### Dars maqsadi:

- [x] tovushining talaffuzi va X x harfining bosma shakli yuzasidan amaliy topshiriqlar bajaradilar;

- so'zlardan [x] tovushining o'rmini aniqlashni o'rganadilar;

- so'zni bo'g'inga bo'lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

**Tayanch so'zlar:** xakkey, [x] tovushi ishtirokidagi so'zlardan tovushlar sonini aniqlash chizmasi.

**Didaktik materiallar:** rasmi va bo'g'inli kartochkalar, kesma harflar ,

### Darsning borishi:

#### I.Kirish qismi (5 daqiqa)

##### Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O'quvchilardan bugungi kun sanasi so'raladi.

Gap tuzamiz mashqi: O'qituvchi 4 ta so'zdan iborat gap tuzishni so'raydi.

-Bugun siz bilan "gap tuzamiz" mashqini o'tkazamiz. 4 ta so'zdan iborat gap tuzing.

#### Asosiy qism (40 daqiqa)

##### 1.Amaliy topshiriq bajarish: (10 daqiqa)

**Darslikda berilgan rasm asosida so'z tahlili chizmasi birgalikda tuziladi.**

Rasmdagi bog'liqlik haqida suhbatlashiladi. Ular orasidan bitta so'zni tanlab olib uning chizmasi rangli kataklar yordamida hosil qilinadi.

Xo'roz- 2 bo'g'in. 1-bo'g'in xo', 2-bo'g'in -roz chizmasi



##### Darslik bilan ishlash: (20 daqiqa)

Darslikda berilgan bo'g'in va so'zlar o'quvchilarga navbat bilan o'qitiladi.

O'xshash bo'g'inli so'zlarni o'qilishi va so'zlar ma'nolari tushuntiriladi.

xon, das-tur-xon

Topishmoq o'qitiladi. Rasmlar orasidan javoblari topiladi.

Boshi taroq,  
Dumi o'roq.(xo'roz)

Xo'roz desam, qand,

**Darslik**

[x] tovushi. X x harfi 56-dars

Rasmga qarang. X harfi qatnashgan so'zlarni topib, ularga mos chizma chizing.

xalq rux-sat  
xarv gul-xan  
xulq poy-taxt

xush bo'y  
vaqt xabar

Boshi taroq, Dumi o'roq. Xo'roz desam, qand, Qand desam, xo'roz.

Xakkey o'yini

Qish-ki sport o'yin-la-ri bo-la-lar-ga ju-da yo-qa-di. Ay-niq-sa, xak-ke-y o'y-ni u-lar-ga ya-na-da za-q ba-g'ish-lay-di. Chun-ki xak-ke-y - ma-d-lar o'y-ni. Xak-ke-y-da o'y-ni-chi-lar chaq-qon-lik bi-lan ha-ra-ka-t-la-rish-la-ri ke-rak. Bu sport lu-ni tez-ko-r-lik, ep-chil-lik va hush-yor-lik-ni ta-lab e-ta-di. Bu o'y-ni or-ga-niz-m-ni chi-niq-li-ra-di va ba-qui-v-ki di-la-di.

69

**sahifasini shu dars beti rasmi**

Qand desam, xo'roz.(xo'rozqand)

“Xokkey o'yini” matni o'qitiladi. Matn mazmuni asosida suhbat o'tkaziladi. Qish-ki sport o'yin-la-ri bo-la-lar-ga ju-da yo-qa-di. Ay-niq-sa, xok-key o'-yi-ni u-lar-ga ya-na-da zavq ba-g'ish-lay-di. Chun-ki xokkey – mard-lar o'-yi-ni. Xok-key-da o'-yin-chilar chaq-qon-lik bi-lan ha-ra-kat-la-nish-la-ri ke-rak. Bu sport tu-ri tez-ko-rlik, ep-chil-lik va hush-yor-lik-ni ta-lab e-ta-di. Bu o'-yin or-ganizm-ni chi-niq-ti-ra-di va ba-quv-vat qi-la-di.

**Daftar bilan ishlash: (10 daqiqa)**

**1. Kvadratlarga qarang. Qaysi bo'g'inlar yetishmayotganini toping va bo'sh kataklarga ularni yozing.**


|    |    |    |    |  |    |     |    |    |    |    |    |
|----|----|----|----|--|----|-----|----|----|----|----|----|
| PA | PU |    | PO |  | MI | MO' |    |    | FO |    |    |
|    | RU | RE | RO |  |    |     | ZE |    |    | KI | KA |
| XA |    | XE | XO |  | NI |     | NE | NU | QO |    | QA |
| JA | JU | JE |    |  | DI |     |    | DU |    | LE |    |

**2. Ikkinchi bo'g'inni topib, so'z hosil qilib yozing.**



*Xona, xola, xurmo,*

**3. Berilgan rasmlar nomini ayting. Ularda ishtirok etgan harflarni bo'yang.**



**Darsga yakun yasash:**

**Refleksiya mashqi:**

**Bugun o'zingiz bajargan ishlaringizni qanday baholaysiz?**

**Barmoqlaringizda ko'rsating.**